

XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARIDAN FOYDALANIB BOSHLANG‘ICH SINFI
O‘QUVCHILARIDA MATNNI TUSHUNISH VA IJODIY FIKRLASHNI
RIVOJLANTIRISH

Nasriddinova Nasiba Alimjonovna

University of Innovation Technology

“Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası P.f.f.d (PhD) v.b. dotsent.

Ismatova Kumush Aliyor qizi

University of Innovation Technology

“Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishi I bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19382061>

Annotatsiya. Mazkur ishda boshlang‘ich sinfi o‘quvchilarining matnni tushunish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida ertaklar, maqollar, topishmoqlar, rivoyat va afsonalarning ta‘limiy-tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodi asosida tashkil etilgan dars mashg‘ulotlari o‘quvchilarning matn mazmunini anglab o‘qish, mustaqil va ijodiy fikrlash, nutqiy faolligini oshirishda samarali vosita ekanligi asoslab berilgan. Ish natijalari boshlang‘ich sinfi o‘qituvchilari uchun metodik tavsiyalar sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta‘lim, matnni tushunish, ijodiy fikrlash, xalq og‘zaki ijodi, ertaklar, maqollar, topishmoqlar, o‘qish savodxonligi, nutqni rivojlantirish, milliy qadriyatlar.

Аннотация. В данной работе освещаются вопросы использования образцов устного народного творчества в развитии навыков понимания текста и творческого мышления у учащихся начальных классов. В ходе исследования проанализировано воспитательно-образовательное значение сказок, пословиц, загадок, преданий и легенд.

Также обосновано, что занятия, организованные на основе устного народного творчества, являются эффективным средством формирования у учащихся осознанного чтения, развития самостоятельного и творческого мышления, а также повышения речевой активности. Результаты работы могут служить методическими рекомендациями для учителей начальных классов.

Ключевые слова: начальное образование, понимание текста, творческое мышление, устное народное творчество, сказки, пословицы, загадки, читательская грамотность, развитие речи, национальные ценности.

Abstract. This study explores the use of folklore samples in developing primary school students’ text comprehension and creative thinking skills. During the research process, the educational and moral significance of fairy tales, proverbs, riddles, legends, and myths was analyzed. It is also substantiated that lessons organized on the basis of folklore serve as an effective means of improving students’ reading comprehension, independent and creative thinking, and increasing their speech activity. The results of the study can serve as methodological recommendations for primary school teachers.

Keywords: primary education, text comprehension, creative thinking, folklore, fairy tales, proverbs, riddles, reading literacy, speech development, national values.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda matnni tushunish ko‘nikmasini xalq og‘zaki ijodida ertak, maqol, rivoyat, qissa, hikoyalarning aksariyati, real hayot tasviri bo‘lib o‘tgan voqealardan olingan qisqa personajlar bilan qo‘shilib ketadi.

Xalq o'g'zaki ijodi o'tkir maroqli syujet, voqea rivojidadagi favqulotda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, ulardagi mard, kuchli, ziyrak, topqir, jasoratli, dovyurak, chaqqon qahramonlar ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik kuchi, ya'ni yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga jalb etadi.[6]

Xalq og'zaki ijodida ota-bobolarimizning aytmoqchi bo'lgan pand nasixatlari, el e'zozlagan odam bo'lishning talab - qoidalari, Alpomish, To'maris, Amir Temur, Mahmud Tarobiy kabi ajoyib yurt farzandlarining botirliklari, xalqimizning urf-odatlarini, milliy fazilatlarimiz haqida san'at darajasiga ko'tarilgan so'z tizimlaridan iborat masal, topishmoq, doston, ertaklar o'quvchilarga bag'ishlangan asarlar va boshqa janrlardagi namunalarda ifodasini topadi. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida maqol, ertak, topishmoq, tez aytish janrlari orqali o'quvchilarning tafakkurini o'stirishda o'qish savodxonligi darslari asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.[7] Darslarda o'quvchilar xalq o'g'zaki ijodiga doir topishmoqlar, maqollar va tez aytishlardan tashqari o'zbek xalq ertaklaridan "Sholg'om", "Bo'ri bilan tulki", "Ur to'qmoq" va o'yinlaridan "Chillak" kabilarni o'rganishadi.

Boshlang'ich sinfni xalq og'zaki ijodi bilan tanishtirish ularning umumiy ma'naviyatini boyitadi, insoniy ruhiyatini chuqur anglashga yordam beradi va vatan tarixi, urf - odatlarini o'rganish orqali munosib shaxs sifatida tarbiyalaydi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qish savodxonligi muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon, nafaqat, harflarni tanish va so'zlarni tushunishni o'z ichiga oladi, balki o'quvchilarda matn ifodali va ma'noli o'qiy olish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Ifodali o'qish ko'nikmalari o'quvchilarning nutqiy madaniyatini yuksaltirishga, shuningdek, ularning mantiqiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.[8]

O'qish savodxonligi o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi matn mazmunini tushungan sari tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatiga ega bo'ladi. [1]

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga xalq og'zaki ijodi namunalariidan foydalanib, milliy ta'lim berish kuchaytirilgan hozirgi paytda, ta'lim va tarbiyaning mazmuniga yangiliklar kiritilayotgan sharoitda o'quvchilarni ma'naviy - axloqiy tarbiyalashda ertaklar, rivoyatlar, maqollar, dostonlar, namunalari ijobiy natija berishi shubhasizdir. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini va tafakkurini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodi namunalariidan foydalanish samarali hisoblanadi.

Xususan, ertaklar, maqollar va topishmoqlar bolalar yoshiga mosligi va mazmunining soddaligi bilan ajralib turadi. [2] Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matn tushunish qobiliyati ularning til va tafakkur rivoji bilan bevosita bog'liq.

Matn mazmunini anglab o'qish jarayonida o'quvchilar:

asosiy g'oyani ajratib olish

voqealar ketma - ketligini tushunish

qahramonlarning xatti - harakatlarini tahlil qilish

xulosa chiqarish...

ko'nikmalarini shakllantiradilar.[3]

Maqollarni yodlash orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari qisqa, lo'nda va mazmunli fikrlash ko'nikmasini egallaydilar, maqollar orqali hayotiy xulosalar chiqarishga o'rganadilar.[4]

Topishmoqlar esa o'quvchilarning mantiqiy va tezkor fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Topishmoqning javobini topish jarayonida o'quvchilar taqqoslash, umumlantirish va tahlil qilish ko'nikmalarini egallaydilar. [5]

Tez aytishlar bolalarga soʻzlashuvdagi kamchiliklarni bartaraf etish, ogʻzaki nutqni shakllantirish, mantiqiy toʻgʻri gaplar yaratish imkonini beradi. Xalq ogʻzaki badiiy ijodiyoti millatning obrazli fikrlashini, oʻziga xosligini koʻrsatuvchi anʼanalar tizimi boʻlishi bilan birgalikda uning maʼnaviy - ruhiy yetuklikka erishuvda muhim rol oʻynaydigan manbalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlangʻich taʼlim jarayonida bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirish uchun turli imkoniyatlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun taʼlim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning muhim yoʻnalishlarida muammoli vaziyatlar yaratish va taʼlimni texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi bolalar ijodiy faoliyatini shakllantirishning samaradorligiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar

1. Yoʻldoshev J. "Pedagogika". Toshkent-Sharq nashriyoti. 2019. 320 b. 112-113 b.
2. Karimov S. "Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi". Toshkent-Fan nashriyoti. 2017. 225 b. 63-64 b.
3. Abdullayeva Q. "Boshlangʻich taʼlim metodikasi". Toshkent: Oʻqituvchi nashriyoti. 2018. 240 b. 45-46 b.
4. Ismoilov B. "Oʻzbek maqollari va taʼlim". Toshkent-Maʼnaviyat. 2016. 205 b. 54-55 b.
5. Toʻxtayeva M. "Boshlangʻich taʼlimda mantiqiy fikrlash". Toshkent-Fan nashriyoti. 2019. 175 b. 72-73 b.

Internet saytlar

7. zenodo.org
8. intersciena.uz
9. uzresearchers.com